BADIIY MATNLARDA NOVERBAL BIRLIKLARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Iskandarova Jasmina
Termiz davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy matnlarda noverbal vositalarning pragmalingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, fonatsion (ovoz ohangi va tovush o'zgarishlari), kinetik (mimika va tana harakatlari) hamda olfaktik (hid bilan bog'liq) birliklarning badiiy matndagi semantik va emotsional funksiyalari yoritiladi. Tahlil jarayonida ushbu vositalarning personaj ruhiy holatini ifodalash, yashirin ma'nolarni yuzaga chiqarish hamda matnning pragmatik ta'sir kuchini oshirishdagi o'rni ko'rsatib beriladi. Maqola badiiy nutqda noverbal elementlarning estetik va kommunikativ ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: *noverbal vositalar, pragmalingvistika, fonatsion vositalar, kinetik vositalar, olfaktik vositalar, badiiy matn, emotsional ifoda, pragmatik tahlil, semantika, kommunikatsiya.*

Аннотация:В данной статье анализируются прагмалингвистические особенности невербальных средств в художественных текстах. В частности, освещаются семантические и эмоциональные функции фонационных (интонация и изменения голоса), кинетических (мимика и движения тела), а также ольфакторных (связанных с запахом) единиц в художественном тексте. В процессе анализа раскрывается роль данных средств в выражении психологического состояния персонажа, выявлении скрытых смыслов и усилении прагматического воздействия текста. Статья показывает

эстетическое и коммуникативное значение невербальных элементов в художественной речи.

Ключевые слова: *невербальные средства, прагмалингвистика, фонационные средства, кинетические средства, ольфакторные средства, художественный текст, эмоциональное выражение, прагматический анализ, коммуникация.*

Annotation: This article analyzes the pragmalinguistic features of nonverbal means in literary texts. In particular, it highlights the semantic and emotional functions of phonational (intonation and voice changes), kinetic (facial expressions and body movements), and olfactory (smell-related) units in literary discourse. The analysis demonstrates the role of these means in expressing the psychological state of characters, revealing hidden meanings, and increasing the pragmatic impact of the text. The article reveals the aesthetic and communicative significance of nonverbal elements in literary speech.

Keywords: *nonverbal means, pragmalinguistics, phonational means, kinetic means, olfactory means, literary text, emotional expression, pragmatic analysis, communication.*

Nutq insoniyat jamiyatining eng muhim kommunikativ vositalaridan biri bo'lib, kishilar o'rtasidagi fikr almashinuvi, hissiy munosabat va ijtimoiy aloqalarni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Inson o'z fikrini ifodalash, his-tuyg'ularini bayon etish hamda atrofdagilar bilan munosabat o'rnatishda verbal va noverbal vositalardan birgalikda foydalanadi. Shu bois kommunikatsiya jarayonini faqat til birliklari orqali emas, balki turli imo-ishora, mimika, tana harakatlari va boshqa noverbal vositalar orqali ham o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.Insoniyat taraqqiyotining dastlabki

bosqichlaridayoq muloqot jarayoni mavjud bo‘lgan. Nutq hali to‘liq shakllanmagan davrlarda ibtidoiy insonlar o‘zaro aloqa o‘rnatishda turli imo-ishora va harakatlardan foydalanganlar. Shu jihatdan noverbal vositalar inson kommunikatsiyasining eng qadimgi shakllaridan biri sifatida e’tirof etiladi. L.S. Vigotskiy nutq faoliyatining shakllanish jarayonida til va imo-ishoralar dastlab o‘zaro chambarchas bog‘liq holda mavjud bo‘lganini ta’kidlaydi. Olimning fikriga ko‘ra, ibtidoiy insonlar muloqot jarayonida nafaqat so‘zlardan, balki turli imo-ishora va harakatlardan ham keng foydalanganlar. Shu sababli qadimgi tillarda imo-ishoralarni ifodalovchi va tasvirlovchi so‘zlarning ko‘pligi kuzatiladi. Vigotskiy ibtidoiy inson tilini ikki tarkibli tizim sifatida baholab, uning bir tomoni so‘z tili, ikkinchi tomoni esa imo-ishora tilidan iborat ekanini qayd etadi. Natijada har bir nutq birligi tovush, so‘z va harakatlarning uyg‘unlashuvi asosida shakllangan murakkab kommunikativ tizim sifatida namoyon bo‘lgan. Nutq jarayonida noverbal vositalar so‘zlovchining ichki kechinmalari, ruhiy holati, emotsional munosabati va kommunikativ maqsadini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, bosh irg‘amoq, qosh chimirmoq, ko‘z qisish, lab burish, qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish kabi harakatlar nutqqa qo‘shimcha ma’no yuklab, uning ta’sirchanligini kuchaytiradi. Bunday vositalar paralingvistik birliklar sifatida baholanadi va ular verbal nutqning mazmunini to‘ldirish, aniqlashtirish hamda emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, nutq jarayonida qo‘llaniladigan noverbal vositalarni o‘rganishga ixtisoslashgan tilshunoslik bo‘limi paralingvistika deb ataladi. “Paralingvistika” termini yunoncha “para” – “yonida”, “birga” hamda “lingvistika” – “tilshunoslik” so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, til bilan birga qo‘llanuvchi kommunikativ vositalarni anglatadi. Ushbu termin XX asrning 40-yillari oxirida

ilmiy muomalaga kiritilgan. Uning nazariy asoslarini shakllantirishda amerikalik tilshunoslar, xususan, A. Xill va J. Teygerning xizmatlari katta bo'lgan. A. Xill paralingvistik hodisalarning til tizimi bilan bog'liqligini tahlil qilgan bo'lsa, J. Teyger ushbu yo'nalishning nazariy asoslarini tizimlashtirishga muhim hissa qo'shgan.Jahon tilshunosligida paralingvistik vositalarni o'rganishga oid ilmiy izlanishlar, asosan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng rivojlandi. T.M. Nikolayeva, B.A. Uspenskiy, G.V. Kolshanskiy, I.N. Gorelov, G.E. Kreydlin, A. Garkavets, L.S. Vigotskiy, A.A. Reformatskiy, M.L. Butovskaya, E.G. Kulikova, I.A. Kuznetsov, I.A. Golovanova, I.A. Krim kabi olimlarning tadqiqotlarida noverbal vositalarning lingvistik, psixologik, pragmatik va madaniy jihatlari keng yoritilgan. Yuqorida nomlari tilga olingan xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari ta'sirida o'zbek tilshunosligida ham paralingvistik vositalar va ularning turli aspektlarini o'rganishga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, A. Nurmonov, M. Saidxonov, S. Mo'minov, Sh. Iskandarova, A. Aripova, Z. Akbarova, Q. Rasulov, A. Haydarov, G. Toirova, Q. Kaxarov, X. Ismoilov, B. Axmedov, M. Qurbanov kabi olimlarning ilmiy izlanishlari ushbu sohaning rivojiga muhim hissa qo'shdi.

Bizningcha, paralingvistik vositalarni o'rganish bugungi zamonaviy tilshunoslik uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki inson muloqoti faqat so'z orqali emas, balki turli imo-ishora, mimika va tana harakatlari orqali ham amalga oshadi. Ayniqsa, badiiy matnlarda noverbal vositalar qahramonning ruhiy holati, ichki kechinmalari va kommunikativ maqsadini yanada ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli paralingvistik birliklarni pragmalingvistik nuqtai nazardan tadqiq etish nafaqat til va nutq munosabatlarini chuqurroq anglashga, balki xalqning milliy tafakkuri va madaniyatini o'rganishda ham

muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.Bundan tashqari, A.Nurmonov o‘zbek tilshunosligida paralingvistika yo‘nalishining shakllanishi va rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan yetakchi olimlardan biri hisoblanadi. Olim o‘z tadqiqotlarida paralingvistik vositalarning nazariy asoslari, ularning lingvistik tabiati hamda kommunikatsiya jarayonidagi o‘ziga xos funksional xususiyatlarini ilmiy jihatdan atroflicha tahlil qilgan. Tadqiqotchi noverbal vositalarning verbal nutq bilan uzviy bog‘liq holda qo‘llanishini asoslab, ularning inson fikri, hissiyoti va kommunikativ maqsadini ifodalashdagi muhim o‘rnini ko‘rsatib bergan.

A.Nurmonov paralingvistik vositalarni faqat yordamchi kommunikativ unsur sifatida emas, balki nutq mazmunini boyituvchi va aniqlashtiruvchi muhim pragmatik vosita sifatida baholaydi. Olimning ta’kidlashicha, mimika, jest, tana harakatlari, ovoz ohangi kabi noverbal birliklar nutqning emotsional-ekspressiv ta’sirchanligini kuchaytirib, so‘zlovchining ichki ruhiy holatini yanada aniqroq ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqotchi noverbal vositalarning kommunikatsiya samaradorligini oshirishdagi ahamiyatiga ham alohida e’tibor qaratadi. Olimning ilmiy qarashlarida paralingvistik vositalarning milliy-madaniy xususiyatlari ham muhim o‘rin egallaydi. Chunki har bir xalqning noverbal kommunikatsiyasi uning mentaliteti, urf-odati, ijtimoiy qarashlari va muomala madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir. A.Nurmonov o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan noverbal harakatlarning ma’no va vazifalarini tahlil qilish orqali ularning milliy tafakkur hamda madaniyat bilan aloqadorligini ilmiy asoslab bergan.

Noverbal vositalarni quyidagi tasnif asosida o‘rganish mumkin:

1. Kinetik noverbal vositalar.
2. Fonatsion noverbal vositalar.
3. Olfaktik noverbal vositalar.

Kinetik noverbal vositalar kishilar o'rtasidagi kommunikatsiya jarayonida tana a'zolari ishtirokida yuzaga chiqadigan harakatlar tizimini ifodalaydi. Bunday vositalar nutqning muhim yordamchi unsuri bo'lib, muloqot jarayonida qo'shimcha ma'no, emotsional bo'yoq va pragmatik mazmunni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, qo'lni paxsa qilmoq, qosh chimirmoq, yelka qisish kabi harakatlar fikrning kuchaytirilgan ifodasini ta'minlaydi.Kinetik noverbal vositalar odatda ikki asosiy turga ajratiladi: ishoraviy va mimik vositalar. Ishoraviy vositalar qo'l, barmoq, yelka va gavdaning turli qismlari orqali amalga oshiriladigan harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu turdagi harakatlar turli xalqlarda o'ziga xos kommunikativ ma'noga ega bo'lib, ularning madaniy farqlanishi yaqqol seziladi.

Masalan, Tibetda til chiqarish ishorasi hurmat ifodasi sifatida qo'llaniladi. O'zbek madaniyatida esa bu harakat, asosan, bolalar o'rtasidagi hazil yoki kinoya ma'nosida ishlatiladi. Kongo hududida salomlashish jarayonida qo'llarni uzatib, so'ng ularga puflash odati mavjud bo'lib, bu harakat o'ziga xos madaniy muloqot shakli hisoblanadi. Ayrim hollarda puflash harakati turli jamiyatlarda norozilik yoki haqorat ma'nosini anglatsa, Keniya hududida u hurmat ifodasi sifatida talqin etiladi.

Shuningdek, ayrim mamlakatlarda yanoqdan o'pish ham salomlashishning odatiy shakli hisoblanadi. Masalan, Fransiyada yaqin bo'lmagan kishilar ham uchrashganda yanoqdan o'pish orqali salomlashadilar. Italiya, Ispaniya va Belgiyada odatda ikki yanoqdan o'pish an'anasi mavjud bo'lsa, Ukraina, Rossiya hamda ayrim Markaziy Osiyo mamlakatlarida bu harakat uch marta takrorlanadi. O'zbek madaniyatida esa erkak va ayol o'rtasida bunday salomlashish odatiy emas, balki ijtimoiy me'yorlarga zid deb qaraladi.

O‘zbek xalqiga xos an’anaviy salomlashish shakli qo‘lni ko‘ksiga qo‘ygan holda boshni egib, “Assalomu alaykum” deyish orqali amalga oshiriladi. Bu harakat hurmat, samimiyat va odob ifodasining eng chiroyli ko‘rinishi sifatida baholanadi.Kinetik noverbal vositalar nutq jarayonida muhim kommunikativ vazifani bajarib, badiiy asarlarda ham qahramonlarning ruhiy holati, munosabati va ichki kechinmalarini ifodalashda keng qo‘llaniladi. Shu bois ularni o‘rganish tilshunoslikning pragmatik va lingvokulturologik yo‘nalishlari uchun ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Badiiy asarlarda noverbal harakatlarning nutq jarayonida qo‘llanishi alohida ko‘rib chiqamiz.

Masalan, kaftlarni bir-biriga ishqalash harakati insonning biror voqea yoki holatdan ijobiy natija kutayotganini ifodalaydi. Quyidagi parchada ham ushbu holat kuzatiladi:

Uy egasi qaytib kelgach, Ziraksiz xonim: Qani endi, qo‘shni, ko‘ramizmi anavingizni? – deb qoldi. Chinnibekka jon kirdi. Kaftlarini bir-biriga ishqab yigirmanchi asr mo‘jizalariga yaqinlashdi. (E. A'zam.”Bayramdan boshqa kunlar”.)

Bu holatda “Chinnibek”ning harakati “anavi”ga nisbatan umid va ishonch bildirish, shuningdek, ichki quvonch va kutilgan natijaga erishish umidi bilan bog‘liq emotsional holatni ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Sevikli tepakalga qaray-qaray shirin xotiralar og‘ushida o‘tirgan Mafkuraxonimning o‘zi bu lutfga “raxmat” degandek mamnuniyat bilan bosh irg‘adi-yu, mohiyatni kechroq anglab, minbardagi notiqqa yuzlanib bosh chayqadi: xato, siyosiy kaltabinlik! So‘ngra shosha-pisha Oqsoqol shoirdan bu kaltabinning nomini so‘rab olib, “Maddoh aka, hov Maddoh aka!” deb chaqirdi va ko‘rsatgich

barmog'ini tepaga nuqib ishora qildi; bu harakat ham "birinchi" ma'nosini, ham "eng yuqori" degan mazmunni ifodalardi. (E.A'zam. "Shoirning to'yi".)

Keltirilgan parchada bosh irg'ash harakati "rahmat" ma'nosini ifodalab, ijobiy munosabat va minnatdorlikni bildiradi, ikkinchi holatda esa bosh chayqash inkor mazmunini anglatib, "xato" degan ma'noga yaqin kommunikativ signalni ifodalaydi. Umuman olganda, bosh chayqash va bosh irg'ash kabi kinetik noverbal vositalar nutq jarayonida bir nechta ma'nolarni ifodalash imkoniyatiga ega. Xususan, boshni gorizontal holatda chayqash ko'pincha qat'iy inkor ma'nosini bildiradi. Shu bilan birga, u vaziyatga qarab e'tiroz, tan olish, ikkilanish, afsuslanish yoki achinish kabi turli pragmatik ma'nolarni ham ifodalashi mumkin.

Mastona ko'zlarini arang suzib u Bakirga loqaydgina bosh silkib qo'ydi, xolos. (E. Azam. "Bayramdan boshqa kunlar".)

Fonatsion noverbal vositalar "fon" va "ovoz" tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, nutq jarayonida ovozning qanday ohangda, qanday kuch va tempda ifodalanishini bildiradi. Bunda so'zlovchining nutqi baland yoki past, keskin yoki yumshoq, tez yoki sekin tarzda yangrashi muhim kommunikativ ahamiyat kasb etadi.Bunday vositalar so'zlarning leksik ma'nosini o'zgartirmasa ham, ularning emotsional va pragmatik mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni bir xil gap turli ohangda aytilganda turlicha ma'no va munosabatni ifodalashi mumkin. Shu sababli fonatsion vositalar nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi muhim noverbal birliklar sifatida e'tirof etiladi.

"– Shunaqami? – u tomog'ining tagida g'alati bir tarzda xunuk kuldi. Bu kulgi emas, ko'proq bo'g'iq xirillashga o'xshardi."(Cho'lpon. "Kecha va kunduz").

Ushbu parchadagi "xirillash" va "bo'g'iq kulgi" fonatsion noverbal vosita sifatida qo'llangan. Bu tovushlar qahramonning ichki nafrati, kinoyasi va salbiy

ruhiy holatini noverbal signallar orqali ifodalaydi. Oddiy kulgi o'rniga bo'g'iq va xirillagan ovozning tasvirlanishi personajning hissiy zo'riqishini kuchaytirib, nutqning pragmatik ta'sirchanligini oshirgan. Yulduzli tunlar asaridagi ushbu parchada "shivirlash" va "tovush qaltirashi" fonatsion noverbal vosita sifatida qo'llangan. Bu vositalar qahramonning qo'rquvi, hayajoni va noma'lum xavfdan cho'chishini ifodalaydi. Ayniqsa, tovushning qaltirashi personajning ruhiy beqaror holatini ochib berib, nutqning emotsional ta'sirchanligini kuchaytirgan.

Olfaktik noverbal vositalar (lotincha olfactus – hidlash) – bu insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida hidlar orqali axborot almashinishni ta'minlaydigan, so'z bilan ifodalanmaydigan muloqot turidir. Ilmiy nuqtai nazardan, bu inson xulq-atvori, his-tuyg'ulari va munosabatlarini hid orqali idrok etish va uzatish mexanizmini anglatadi.

Olfaktik vositalarning asosiy ilmiy jihatlari:

Kommunikativ funksiya – olfaktik vositalar inson haqida ma'lumot beradi, ya'ni hid orqali kishining tozaligi, parvarishi yoki sog'liq holati seziladi va ular muloqot jarayonida muhim noverbal signal vazifasini bajaradi.

Emotsional ta'sir – olfaktik signallar insonning xotira va his-tuyg'ulari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayrim hidlar yoqimli xotiralarni uyg'otsa, boshqalari xavf, yoqimsizlik yoki bezovtalik hissini keltirib chiqarishi mumkin.

Milliy-madaniy xususiyatlar – hidlarning qabul qilinishi turli madaniyatlarda har xil talqin etiladi, masalan, ayrim jamiyatlarda kuchli atir hidi yuqori mavqe belgisi sanalsa, boshqa madaniyatlarda nojo'ya holat sifatida baholanishi mumkin.

Nizomjon darvozadan kirishi bilan dimog'iga yanchilgan beda va yangi yopilgan issiq non hidi urildi. U ko'zlarini yumib, bu hidni to'yib-to'yib ichiga yutdi. (S.Ahmad. "Ufq".)

Ushbu parchada "issiq non hidi" olfaktik noverbal vosita sifatida qo'llanib, tinchlik, sog'inch va ona mehri kabi iliq hislarni ifodalaydi. Qahramonning "ko'zlarini yumib" hidni ichiga yutishi esa uning bu hid orqali ruhiy huzur va taskin olayotganini ko'rsatadi. Demak, hid va mimik harakat qahramonning ichki kechinmalarini noverbal tarzda ochib berishga xizmat qilgan.

Edigey tuyasining ustida borarkan, cho'lning shuvoq (achchiq o't) hidini tuydi. Bu achchiq hid uning dardi bilan hamohang edi. (Ch.Aytmatov. ''Asrga tatigulik kun''.)

Ushbu parchada "shuvoqning achchiq hidi" hid bilan bog'liq noverbal vosita sifatida qo'llangan. Bu hid qahramonning ichki iztiroblari, ruhiy og'riqlari va taqdirining og'irligini ramziy tarzda ifodalaydi. Hidning "dardi bilan hamohang" tarzda tasvirlanishi esa qahramon kechinmalarining tabiat bilan uyg'unlashganini ko'rsatib, matnning hissiy ta'sirini yanada kuchaytiradi va o'quvchida og'ir, g'amgin kayfiyat uyg'otadi.

Xulosa qilib aytganda, noverbal vositalar badiiy matnda yashirin ma'nolarni ochib beruvchi, emotsional ta'sirni kuchaytiruvchi va personaj ruhiyatini chuqur yorituvchi muhim lingvistik qatlamni tashkil etadi. Badiiy matnlarda noverbal vositalar – fonatsion, kinetik va olfaktik birliklar – personajlarning ichki psixologik holatini, emotsional kechinmalarini va kommunikativ niyatini yashirin va ta'sirchan shaklda ifodalovchi muhim pragmalingvistik vositalar hisoblanadi. Fonatsion vositalar ovozning ohang, tembr va intensivlik o'zgarishlari orqali hissiy holatlarni ifodalasa, kinetik vositalar mimika va tana harakatlari orqali ma'noni

kuchaytiradi, olfaktik vositalar esa hidlar yordamida ramziy-emotsional mazmunni yuzaga chiqaradi. Ushbu vositalar badiiy matnning ekspressiv va pragmatik ta'sir kuchini oshirib, o'quvchida chuqur estetik va hissiy idrokni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zamov E. Bayramdan boshqa kunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
2. A'zamov E. Shoirning to'yi. – Toshkent, 1994.
3. Jo'rayeva B., Toirova G., Zaripova A. Sotsiolingvistika. – Buxoro: "Durdona" nashriyoti, 2019.
4. Nurmonov A. O'zbek tilining paralingvistik vositalari haqida. – Andijon, 1980.
5. O'rinboyeva D. O'quvchilarda verbal va noverbal matnlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish. – Samarqand, 2021.
6. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. … дисс. – Самарқанд, 1993. — Б.105.
7. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. – Андижон, 1980. — 24 б.
8. Тоирова Г. Ўзбек нутқий мулоқотида системавийлик ва информативлик: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2017. – Б.42.
9. Eshqurbonova, Aziza Bozor qizi. "Dialogning o'ziga xos xususiyatlari". Academic research in educational sciences 5.2 (2024): 855-859.
10. Najibullo, S., & Manzura, B. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES [J]. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, *11*(02).